

## So‘z va ish

Muxtoriyatli Turkiston bu kun chin bir ish maydonini ko‘ra olgani yo‘q. Matbuoti, tashkiloti, xalqlari va og‘alari “quruq so‘z” beruvdan boshqa bir ish ko‘rsata olg‘ani yo‘q. Yillar bo‘yicha qonlar bergan, iffat va nomuslari oyoq ostiga olingan Turkiston arslonlari bu hollardan ibrat olub, ko‘zin ochqoni yo‘q.

Har tarafda so‘z, boshga tushmakda bo‘lg‘on qonli qilichga-da so‘z, yuragina va turklik hisina urilgan qora harba hanjarga qarshida quruq bir so‘z. Vatani yonmakda, eli jonivorlar tarafindan tahqir etilmoqda ekan, yana so‘z birlan maqovimat<sup>1</sup> etmakdadir.

Matbuotda quruq so‘zdan boshqa hech bir narsa yo‘q!... sahifalari tamoma hayolot birlan to‘lg‘on! Qora xabar va fojialar birlan qorayturulg‘on! Musulmon va turk avlodlarining ulkanlarin, xotin-qizlarining arzi nomuslarini yirtilganin yozmakda. Turk ulusining tahqir etilganin, turk asrlonlarining qora qonlarga bo‘yalganlarini faryodlar birlan bildirmakdadurlar. Ammo Turkistonning hech bir yerina biror turkistonlining, turk bo‘z yigitining xoinlarga qarshi chiqib bobosining mozorlarini mudofa etganligini ko‘rilmadi!... hola bir turk yigit.... vatani uchun ko‘k bayrog‘ ko‘tarib dushmanga qarshi chiqmadi.

Ammo mog‘az<sup>2</sup> ustinda, og‘rilarda “xalq miliitsasi” tuzuvmoq uchun berilgan qaror bor!... halokat zo‘r emakda ekan, qarshi so‘z mudofasindan boshqa chora yo‘q. Turkiston ustinda qora ruslarning “qora qartol”lari<sup>3</sup> uchmakda ekan. Qarshi Temurlangning yoyi ko‘tarilgani yo‘q. Bechora turk elining ko‘klam tuprog‘iga qoraxitoyning qora ilonlari zahar solmak uchun tilini chiqarib turmakda ekan, holo Chingizlarning qilichlari ko‘tarilgani yo‘q.

Chunki Turkiston so‘z birla qutulur! Or, xo‘rliq, ulug‘ turk elining shunday hollarda yotuvi biz turklar uchun xo‘rlik, bobolarimizning mozorlari dushman tarafindan bosilib xo‘r etilmakda ekan, turkistonlining quruq so‘z birla qarshi turmog‘i, bo‘yin egib sulh so‘rovi o‘lum.

Ulug‘ Turkistonga “ag‘o” bo‘lub yurgan kishilarga, xalqning holi, yurtning xarobalari ma’lum emasmi; Turonda qilinmakda bo‘lg‘on vahshiyliqlar, jinoyatlar bilinadimi?...

- Albatta ma’lum?..

- Nima uchun chorasi ko‘rilmaydur?.. Chunki muxtoriyat hay’ati har ishda chin bir qilib va g‘ayrat birlan kirishmakda va butun hollarni ko‘rub, chorasi uchun qarorlar bermakdadir. Faqat bu qarorlar quruq bir qog‘oz ustindadir. Uning amalga oshuvi uchun moddiy kuch yo‘q! Xazina hali ta’sis etilgani yo‘q. Rus zayumig‘a

<sup>1</sup> Maqovimat – qarshilik.

<sup>2</sup> Mog‘az – eslatma uchun yozib qo‘yiladigan qog‘oz.

<sup>3</sup> Qora qartol – qora quzg‘un.

yuz minglab yozilg‘onlarimiz, rus askari uchun o‘n minglab iona bergenlarimiz, muxtoriyat uchun va Turkistonni qutqarish uchun o‘z yordam qo‘llarini cho‘zmadilar!..

Dunyoda eng boy, ma’mur va musbat mahsuldor bo‘lg‘on Ulug‘ Turkiston; bu kun xazinasiz!.. askariy tashkilot uchun yetarlik aqcha yo‘qdir. Faqat har bir turkistonli, quruq so‘z va va’da birlan vatan uchun butun borlig‘ini bermoqg‘a hozir!..

Xullas kalom, Turkiston turklarining siyosiy hol va hozirliklari; muxtoriyatning muhofaza etuv uchun va hamda bir hovuch uyatsiz dushmanlarr‘a qarshi turub, nomusini va huquqini mudofa qiluvg‘a yetarlik emasdir. Ahvol siyosiy, Turkiston uchun bik falokatlar, halokatlar hozirlamakdadir. Siyosiy jihatdan, yosh bola darajasida safda bo‘lg‘on Turkiston uchun bu falokatlardan qurtuluvga nihoyatda ulug‘ qurbon lozim, turkcha g‘ayrat va ijтиҳод birlan puxta hozirlik kerakdir.

Bir yil vaqtini bizlar, tajribasizlikdan bo‘s sh va harakatsiz o‘tkarduk! Rahmatullohi bo‘lg‘on bu bir yilgi fursat harakatsiz o‘tkazilganidik istiqboldagi falokat va halokatlarr‘a qarshi chora ko‘rilmadi.

Faqat ungan undi. Muttaasib sinfimizning nasabi va jaholati soyasinda bik ko‘b ishlar va voqealar millat va vatanning zararig‘a hal etildi. Ya’ni sakkiz oyliq fursat jamoalarimizning jinoyati birlan mahv etdirildi. Emdi biz o‘tgan uchun bir narsa deya olmaymiz... yolg‘iz shu jamoalarg‘a qarshi shuni deymiz!

O‘rinsiz qon to‘kuvga sabab bo‘lub, vatanning ishini falokatg‘a qo‘yg‘anlarga la’nat bo‘lsun !...

(bu oh va faryod millatning fikrli sinfining ohi bo‘lg‘onligidan bu kungi halokat va dahshatli hollarni ko‘rub ko‘ngil yonuvindan la’nat yog‘diramiz) bu kundan boshlab har bir turkistonlining vatani muqaddasning halosiga xidmat qilmagi farzidir. Yurt, el ustindagi falokatlarga qarshi ko‘krak kerib, nomus uchun tortishmoq har kimga... lozim va labdadur.

Siyosiy ahvollardan xabardor bo‘lg‘on yoshlar uchun to‘qtovsiz xozirlanuv, siyosiy va hamda quvatli firqalar tashkil etuv kerakdir. Hukumat hay’atining “xalq militsasi” haqidag‘i qarorig‘a qulq solmasdan, har yerda yoshlarning firqalari yasovlari siyosatcha ahamiyatlidir. Chunki bu firqalar har vaqt har qanday hollarg‘a qarshi vatan va hukumatning foydasi uchun yordamlar berur va xalqning muhofaza va tinchligi uchun nihoyatda ulug‘ bir ahamiyati hoizdur<sup>4</sup>.

So‘z ko‘b, faqat ish yo‘q, vatanning muhofazasi uchun nimslarcha<sup>5</sup> ishlik bo‘lmog‘imiz lozimdir. Millatni millat qiladurg‘on buyuk kuchi birlan g‘ayratidir.

---

<sup>4</sup> Ahamiyati hoiz – ahamiyatga ega.

<sup>5</sup> Nims – nemes (o‘rischa).

Bu kun butun millat bolasining ishi maydonig‘a chiquvi... farzdir!... turklar uchun yo‘qlamakdan ko‘ra vatan muhofazasi uchun temur qo‘li birlan dushmanga qarshi chiquv qadar lazzatli hech bir narsa yo‘qdir. Turk bolasi uchun yigitlik merosdir.

Eh turk bolalari! Otli xon, o‘g‘uzxon, Temur va Chingizlarning ruhlari tahqir etilmakda ekan, bobolaringizni mazori oyoq ostida dushman tarafindan tahqir etilmakda ekan... sen yo‘qlab yotma! Seni najot qiladurg‘on ulug‘ tangri sanga aytadir: insonni inson qiladurg‘on, muqaddas ishdir! Uyg‘on! Ilgari, ish maydonig‘a!...

**O‘g‘uzxon (Namangan)  
“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 19 g‘anvar.**